



**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG‘I**

2025-yil “5”-mart

109-I/CH-son

**Xarid komissiyasi a’zolarini
shakllantirish to’g’risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to’g’risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonunining ijrosini ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishda ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholash va tartibga solish hamda raqobatlashuv usullari orqali g‘olibni (g‘oliblarni) tanlash maqsadida doimiy faoliyat yurituvchi xarid komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Xarid komissiyasi “Davlat xaridlari to’g’risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonunning 20-moddasida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishi belgilansin.
3. Xarid qilingan tovarlar bo‘yicha ishonchnomalarni ta’minotchi tashkilotga yuborish (elektron) hamda ulardan kelib tushgan hisob fakturalarni qabul qilish bo‘yicha mas’ul etib o‘qitishning texnik vositalari bo‘limi boshlig‘i D.Kuchkarov tayinlansin.
4. Universitet ehtiyoji uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi to’g’risida mazkur xaridlarning talab va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko‘rsatilgan buyurtma (e‘lon)larni belgilangan tartibda maxsus axborot portaliga joylashtirish, elektron do‘kondan xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha mas’ul shaxs etib xarid bo‘yicha bosh mutaxassis G‘.M.Nasriyev tayinlansin.
5. Universitet devonxona mudiri S.Soibnazarovga mazkur buyruqning mazmunini universitet jamoasiga yetkazish vazifasi yuklansin.
6. Mazkur buyruq ijrosining nazorati moliya-iqtisod va xo‘jalik ishlari departamenti boshlig‘i A.Mirzayev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



R.Matkarimov

O'zDJTSU rektorining
2025-yil 5-martdagi
109-I/CH-sonli buyrug'iga
ilova

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bo'yicha davlat
xaridlarini amalga oshirish komissiyasi
TARKIBI**

T/R	F.I.SH.	Lavozimi
1	Matkarimov Rashid Masharipovich	Rektor, komissiya raisi
2	Mirzayev Abdig'ulom Usanovich	Moliya-iqtisod va xo'jalik ishlari departamenti boshlig'i, Komissiy raisi o'rinbosari
3	Ergashev Shavkat Maxkamovich	Reja-moliya bo'limi boshlig'i, komissiya a'zo
4	Xaydarov Zafarbek Abdimutalovich	Bosh muhandis, a'zo
5	Tuyinov Navruz Narzullayevich	Ichki audit xizmati bo'limi boshlig'i a'zo
6	Nasriyev G'olibjon Muxiddinovich	Xarid bo'yicha bosh mutaxassis, komissiya kotibi
7	Olimov Muxsin Sotvoldiyevich	Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi, a'zo
8	Eshpulatov Sardarbek Sobirjanovich	Universitet yoshlar ittifoqi raisi, a'zo
9	Kuchkarov Doniyor Ne'matovich	O'qitishning texnik vositalari bo'limi boshlig'i, a'zo
10	Lavozimiga ko'ra (prorektorlar va bo'lim boshliqlari)	Xarid qilinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda jalb etiladi, a'zo
11	Ekspert yoki mutaxassis (Zarur hollarda)	Xarid komissiyasi davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va davlat buyurtmachisining yuqori turuvchi tashkiloti mutaxassislarini jalb etish mumkin., a'zo

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.